



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2024-yil 4-noyabr

544-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining yettinchi chaqiriq birinchi sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining yettinchi chaqiriq birinchi sessiyasi 2024-yil 6-noyabr kuni soat 16-00 ga chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga:

xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashi raisini saylash,

xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashiga saylangan deputatlarning partiya guruhlarini ro‘yxatga olish,

xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining Reglamenti va doimiy komissiyalar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Qashqadaryo viloyati hokimi lavozimiga taqdim etilgan nomzodni tasdiqlash masalalari kiritilsin.

3. Ushbu qaror Qashqadaryo viloyati hokimligining rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalari orqali e‘lon qilinsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov